


XITOIY TILIDA 上 [SHÀNG] VA 下 [XIÀ] FE'LLARI MA'NOLARI VA ULARNING O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI

 10.24412/2181-1784-2021-1-741-747

Sh.K.Muxamedjanova

Xitoy filologiyasi kafedrasida tayanch doktoranti
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Xitoy tili tadqiqotchilari tomonidan harakat fe'llari guruhi tarkibida harakat yo'nalishi fe'llari ajratiladi. Harakat yo'nalishi fe'llari polifunksional ahamiyatga ega bo'lib, gapda mustaqil fe'l sifatida, shuningdek, ko'makchi fe'l vazifasida boshqa fe'llar bilan qo'shib, qo'shma (murakkab) fe'llarni hosil qila oladi.

Ushbu maqolada biz harakat yo'nalishi fe'li bo'lgan 上 (*ko'tarilmoq*) va 下 (*tushmoq*) fe'llarining o'z va ko'chma ma'nolarini, shuningdek, ularning o'zbek tilida ifodalanishini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: harakat yo'nalishi fe'li, qo'shma fe'l, murakkab fe'l, modifikator, predikat, qo'shimcha grammatik ma'no, yetakchi ma'no, ko'chma ma'no, yo'nalish ma'nosi.

Annotation. Chinese language researchers distinguish movement verbs within a group of action verbs. Movement verbs are polyphonic in nature and form joint (complex) verbs together with other verbs in the sentence as an independent verb, as well as in the function of auxiliary verbs.

In this article, we present the leading and moving meanings of the verb 上 (*up*) and 下 (*down*), and also consider their expressions in Uzbek.

Keywords: action verb, joint verb, complex verb, modifier, predicate, additional grammatical meaning, leading meaning, portable meaning, meaning of direction.

Аннотация. Исследователи китайского языка классифицируют глаголы направления движения как часть группы глаголов действия. Глаголы направления движения имеют многофункциональное значение и как самостоятельные глаголы в предложении, а также в качестве вспомогательного глагола они могут сочетаться с другими глаголами для образования составных (сложных) глаголов.

В этой статье мы рассмотрим прямое и переносные значения глаголов 上 (вверх) и 下 (вниз), который является глаголами направления движения, а также рассмотрим их выражения на узбекском языке.

Ключевые слова: глагол направления движения, составной глагол, сложный глагол, модификатор, предикат, дополнительное грамматическое значение, прямое значение, переносные значения, направленное значение.

Xitoy tilida fe'llarning ma'nolari va gapdagi vazifalari ko'p qirralidir. Ular nafaqat predikativ vazifani bajaradi, balki qo'shimcha grammatik ma'noga ishora qilish imkoniyatiga ham ega. Xitoy tilidagi harakat yo'nalishi fe'llari shu ikki vazifani bir yo'la ifodalay oladi.

Li Zinsi, Lyuy Shusyan, Vang Li, Djan Djigun, Yan Bozyun, Din Shenshu, Djao Yuanren, Dju Desi, Xu Yuysu, Fan Syao, Sin Fuyi, Luy Yuexua, T.P. Zadoenko, Xuan Shuin, Tan Aoshuan, V.I. Gorelov kabi bir qator xitoy va rus tilshunoslari o'z ilmiy ishlarida xitoy tilida harakat yo'nalishi fe'llari muammolariga to'xtalib o'tishgan.

T.P. Zadoenko va Xuan Shuinlarning yozishicha, “xitoy tilida harakat mazmunini ifodalovchi va bu harakat yo'nalishini ko'rsatuvchi fe'llar mavjud” [3]. Mualliflar bu turdagi fe'llarni ikki guruhga ajratishadi. Birinchi guruhga makondagi harakatni ifodalovchi 7 ta fe'l kiritilgan bo'lib, ular “jin” guruhi fe'llari deb ataladi: 进 (*kirmoq*), 出 (*chiqmoq*), 下 (*tushmoq*), 上 (*ko'tarilmoq*), 回 (*qaytmoq*), 过 (*kesib o'tmoq*), 起 (*ko'tarilmoq*). Ikkinchi guruhda so'zlovchiga qaratilgan harakatni ifodalovchi 2 ta fe'l – 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) qayd qilinadi [3]. Aksariyat xitoy tili tadqiqotchilari 来 (*kelmoq*) va 去 (*ketmoq*) fe'llarini harakat yo'nalishi fe'llari guruhiga kiritadilar. Buning dalili ushbu ikki fe'l avvalo, sodda harakat yo'nalishi fe'llaridir, shuningdek, ular ishtirokida harakat yo'nalishi ma'nosili qo'shma fe'llar hosil qilinadi. Biroq makondagi harakatni ifodalovchi fe'llar ni “jin” guruhi deb nomlanishi T.P. Zadoenko va Xuan Shuinlar tomonidan aytib o'tilgan

Maqolada T.P. Zadoenko, Xuan Shuinlarning “Основы китайского языка” darsligida ajratib o'tgan “jin” guruhi fe'llaridan oriyentir tomon yuqoriga yo'nalgan harakat 上 hamda unga qarama-qarshi ma'nodagi oriyentir tomon pastga yo'nalgan harakat ma'nosini anglatuvchi 下 fe'llarining ma'nolari ko'rib chiqiladi.

上 [**shang**] harakat yo'nalishi fe'li. Xitoy tilidagi 上 [shàng] o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan harakat yo'nalishi fe'li o'zbek tilida turli leksik birliklar

yordamida ifodalanadi. Uning o‘z va ko‘chma ma‘nolarining o‘zbek tilidagi ifodalanishini ko‘rib chiqamiz.

O‘z ma‘nosi. Bu fe‘lning yetakchi ma‘nosi oriyentir tomon yuqoriga yo‘nalgan harakatdir.

1. 上 [shàng] fe‘lining “ko‘tarilish” ma‘nosi o‘zbek tilida *ko‘tarilmoq* fe‘li orqali ifodalanadi. Masalan:

云上 [Yún shàng] [1]. *Bulutlar [osmonga] ko‘tarilmoqda.*

2. Biron bir transportga “o‘tirish”, “ortish” ma‘nolari o‘zbek tilida *o‘tirmoq, chiqmoq, ortmoq* fe‘llari bilan ifodalanadi.

上车 [Shàng chē]. *Mashinaga o‘tirmoq (chiqmoq).*

3. *Qayergadir* “jo‘nab ketmoq”, “yo‘lga tushmoq” ma‘nolari o‘zbek tilida *jo‘namoq, ketmoq, yo‘lga tushmoq, yo‘lga chiqmoq* fe‘llari yordamida ifodalanadi:

上路 [Shànglù]. *Yo‘lga chiqmoq (tushmoq).*

Xitoy tili grammatikasida so‘zlarning gapdagi pozitsiyasi ifodalanayotgan ma‘noga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Misol uchun yuqorida ko‘rib o‘tgan 上路 [Shànglù] *Yo‘lga chiqmoq* misolida 上 [shàng] fe‘li 路[lù] *yo‘l* so‘zidan oldin kelgan vaqtda *yo‘lga tushmoq* ma‘nosini ifodalasa, 路[lù] so‘zidan keyin 上 [shàng] ning qo‘llanilishi *yo‘ldaman* degan ma‘noni ifodalab keladi. Demak, xitoy tili grammatikasida so‘zlarning gapdagi pozitsiyasi nafaqat ma‘no o‘zgartirishga xizmat qiladi, balki qo‘shimcha grammatik ma‘no ham ifodalashi mumkin.

Misollar tahlili shuni ko‘rsatdiki, 上 [shàng] fe‘lining yetakchi ma‘nolaridan biri bo‘lgan “ko‘tarilmoq” ma‘nosi o‘zbek tilida aynan *ko‘tarilmoq* fe‘li bilan ifodalandi. Har ikki fe‘lning bu yerdagi ma‘nosi oriyentir tomon yuqoriga yo‘nalgan harakatni ifodalashga xizmat qiladi. Biroq xitoy tilidagi fe‘lning “ko‘tarilmoq” ma‘nosidan tashqari “ortmoq”, “o‘tirmoq”, “yo‘lga chiqmoq” kabi ma‘nolari o‘zbek tilida boshqa turdagi fe‘llar yordamida ifodalandi.

Ko‘chma ma‘nosi. Xitoy tilidagi 上 [shàng] fe‘lining ko‘chma ma‘nosi asl masofadagi harakat yo‘nalishi ma‘nosini o‘zida aks ettirmay, balki uning o‘z ma‘nosi mavhum holatga o‘tib, bizning ongimizdagi mavhum harakat ma‘nosini anglatuvchi semaga aylanadi.

1. 上 [shàng] fe‘li paydo bo‘lishning ko‘chma ma‘nolarini anglatganda, “chiqmoq”, “paydo bo‘lmoq”, “ko‘rinmoq”; “qilmoq”; “tushmoq”, “qo‘shilmoq” misol uchun, *ro‘yxatga tushmoq* ma‘nolari o‘zbek tilida ayni shu fe‘llar yordamida ifodalanadi:

上市 [Shàngshì] [1]. *Bozorga (sotuvga) chiqarilmoq (chiqmoq).*

上报 [Shàngbào]. *Gazetada chiqmoq (yangiliklarda chiqmoq).*

上 [shàng] “mos kelish”, biron nasaning “yarashishi” ma’nosida kelganida o‘zbek tilida *mos kelmoq, yarashmoq, o‘tirmoq* fe’llari yordamida ifodalanadi. Masalan:

上身儿 [Shàng shen er]. *Qomatga mos, yarashmoq (kiyim haqida).*

2. 上 [shàng] biron ishda ma’lum darajaga “erishmoq” ma’nosi o‘zbek tilida quyidagicha ifodalanadi:

上德 [Shàng dé]. *Donishmandlikka erishmoq.*

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, 上 [shàng] fe’lining ko‘chma “chiqmoq”, “paydo bo‘lmoq”, “ko‘rinmoq”; *biron ish-harakatni* “qilmoq”; “tushmoq”, “qo‘shilmoq”; “mos kelmoq”, “yarashmoq”, ma’lum darajaga “chiqmoq”, “erishmoq” kabi ma’nolari o‘zbek tilida gapda ifodalanayotgan ma’nodan kelib chiqib turli fe’llar yordamida ifodalandi.

下 [xia] **harakat yo‘nalishi fe’li**. Xitoy tilidagi 下 [xià] harakat yo‘nalishi fe’li oriyentir tomon quyiga yo‘nalgan harakat ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilida ushbu ma’no turli leksemalar bilan ifodalanadi.

O‘z ma’nosi. 下 [xià] fe’lining oriyentir tomon quyiga yo‘nalgan harakat ma’nosi o‘zbek tilida *tushmoq* fe’li bilan ifodalanadi. Shuningdek, xitoy tilidagi gaplar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda *tushmoq* fe’li bilan birgalikda *pastga* so‘zi ham qo‘llanilishi mumkin. Bunda ma’no yanada aniq ko‘rsatiladi: *zinadan tushmoq - zinadan pastga tushmoq, yuqori qavatdan tushmoq - yuqori qavatdan pastga tushmoq*. Xitoy tilida esa bunga hojat yo‘q. Sababi 下 [xià] fe’li bir vaqtning o‘zida ham *pastga* va *tushmoq* ma’nolarini o‘zida aks ettiradi.

下楼梯 [Xià lóutī] [1]. *Zinadan pastga tushmoq.*

下飞机 [Xià fēijī]. *Somolyotdan (pastga) tushmoq.*

Ko‘chma ma’nosi. 下 [xià] fe’li ko‘chma ma’noda yashirin harakatni ifodalaydi. Uning quyiga yo‘nalgan harakat ma’nosi ba’zi ko‘chma ma’nolarda saqlanib qoladi. O‘zbek tilida 下 [xià] fe’lining ko‘chma ma’nolari gapda anglashilayotgan ma’nodan kelib chiqib turli leksik birliklar yordamida ifodalanadi.

1. Qor yoki yomg‘irning yog‘ishi, havo haroratining pasayishi kabi ma’nolari o‘zbek tilida *yog‘moq, pasaymoq* fe’llari yordamida ifodalanadi. Masalan:

雪不下了 [Xuě bùxiàle] [1]. *Qor yo‘gishdan to‘xtadi.*

下了两天雨 [Xiàle liǎng tiān yǔ]. *Ikki kun davomida yomg‘ir yog‘di.*

2. 下 [xia] fe'lining nimanidir “ko‘rishga bormoq”, qayergadir “yo‘nalmoq”, “kelmoq” ma‘nolari o‘zbek tilida asosan *kelmoq, bormoq, tashrif buyurmoq* fe’llari bilan ifodalanadi:

作家下厂 [Zuòjiā xià chǎng]. *Yozuvchi zavodga tashrif buyurdi.*

许多作家下乡体验生活 ... [Xǔduō zuòjiā xià xiāng tīyàn shēnghuó...]

Ko‘plab yozuvchilar qishloqqa tajriba orttirish uchun borishadi... .

3. “Ketmoq”, “boshamoq” ma‘nolari, masalan, “ishdan bo‘shamoq”, “tark etmoq” ma‘nolari o‘zbek tiliga anglashilayotgan ma‘nodan kelib chiqqan holda turli fe’llar yordamida tarjima qilinadi.

下了课了 [Xiàle kèle]¹. *Dars tugadi (o‘quvchilar qo‘yib yuborildi).*

他昨天下了活 [Tā zuótiān xiàle huó]. *U kecha ishdan bo‘shadi.*

4. “Meva uzmoq” ko‘chma ma‘nosi o‘zbek tilida *uzmoq* fe’li bilan ifodalanadi, masalan:

新下树的果子 [Xīn xià shù de guǒzi]. *Daraxtdan yangi uzilgan mevalar.*

5. Kimdandir yoki nimdandir “yomonroq (pastroq) bo‘lmoq”, kimgadir “bo‘ysunmoq”, “yon bermoq” ma‘nolari o‘zbek tilida quyidagicha ifodalanadi:

不下于此 [Bùxià yú cǐ]. *Bundan yomoni bo‘lmaydi.*

相持不下 [Xiāngchí bùxià]. *Tortishuvda bir-biriga yon bermaslik.*

下一等 [Xià yī děng]. *Bir pog‘ona past bo‘lish.*

6. 下 [xià] fe'lining “taslim bolmoq”, “tan bermoq” ma‘nolari o‘zbek tilida aynan shu fe’llar yordamida ifodalanadi. Masalan:

原人闻之乃下 [Yuán rén wén zhī nǎi xià]. *Yuan shahri himoyachilari bu haqda xabar topib, taslim bo‘lishdi.*

Tahlil natijalaridan ma‘lum bo‘ldiki, 下 [xià] fe'lining ob-havoga taaluqli bo‘lgan “yog‘moq”, “pasaymoq”; ko‘rishga bormoq”, “yo‘nalmoq”; “ketmoq” “boshamoq”; “uzmoq”; “bo‘ysunmoq”, “yon bermoq”; “taslim bolmoq”, “tan bermoq” kabi ko‘chma ma‘nolari o‘zbek tiliga ifodalanayotgan ma‘nodan kelib chiqib turli fe’llar yordamida o‘giriladi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan tahlil natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagilarni xulosa sifatida keltirish mumkin.

1. Xitoy tilidagi 上 [shàng] fe’li o‘zbek tiliga turli fe’llar yordamida tarjima qilinadi. Uning o‘z ma‘nosi bo‘lgan “ko‘tarilmoq” ma‘nosi o‘zbek tilidagi

¹ Большой китайско-русский словарь: в 4 т. / под ред. И.М. Ошанина. – М.: Наука, 1984.Т.2. – С. 719. (keyingi misollar ham ushbu lug‘atning aynan shu sahifasidan keltirilgan)

ko'tarilmoq fe'li bilan o'xshash. Boshqa o'z ma'nolari, jumladan, “ortmoq”, “o'tirmoq”, “yo'lga chiqmoq” kabilar o'zbek tilida boshqa turdagi fe'llar yordamida ifodalandi.

2. 下 [xià] fe'lining asosiy harakat oriyentiriga tomon harakat ma'nosi o'zbek tilida *tushmoq* fe'li yordamida ifodalanadi. O'zbek tilidagi *tushmoq* fe'li ham 下 [xia] fe'li singari harakatning pastga tomon yo'nalganligiga ishora qiladi.

3. 上 [shàng] fe'lining ko'chma “chiqmoq”, “paydo bo'lmoq”, “ko'rinmoq”; biron ish-harakatni “qilmoq”; “tushmoq”, “qo'shilmov”; “mos kelmoq”, “yarashmoq”, “yuqori o'rinni egallamoq” kabi ma'nolari o'zbek tilida gapda ifodalanayotgan ma'nodan kelib chiqqan holda turli fe'llar yordamida ifodalandi.

4. 下 [xià] fe'lining ob-havoga taalluqli bo'lgan “yog'mov”, “pasaymoq”; “ko'rishga bormov”, “yo'nalmov”; “ketmoq”, “bo'shamov”; “uzmov”; “bo'ysunmov”, “yon bermov”; “taslim bolmov”, “tan bermov” kabi ko'chma ma'nolari o'zbek tiliga turli fe'llar yordamida o'giriladi. Biroq o'zbek tilidagi misollarda qo'llanilgan so'zlarda ham 下 [xià] fe'lining yashirin quyiga yo'nalganlik ma'nosi aks etadi.

5. Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, 上 [shàng] va 下 [xià] fe'llari polisemantik xususiyatga ega, ya'ni ma'no ko'lami juda keng. Shu bois xitoy tilidagi ushbu fe'llar ifodalayotgan ma'nodan kelib chiqib o'zbek tiliga turli qatlamga tegishli bo'lgan fe'llar yordamida o'giriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Большой китайско-русский словарь: в 4 т. / под ред. И.М. Ошанина. – М.: Наука, 1984.
2. ДуХунцзюнь. Система приставочных глаголов движения в русском языке в сопоставлении с китайским языком: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2010.
3. Задоевко Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. – М.: Муравей, 2004.
4. Курдюмов В.А. Курс китайского языка. Теоретическая грамматика. – М.: Цитадель-Трейд; Лада, 2005.
5. XDHYZD – 现代汉语 7000 通用(规范)字正形、正音、正义字典 规范 написания, произношения и значение 7000 общеупотребительных иероглифов современного китайского языка. 罗志武主编 главный редактор Ло Чжиу. 贵阳: 贵州人民出版社 Гуйян: Гуйчжоу женьминь, 2003.

6. 吕叔湘, 主编. 现代汉语八百词. Lu Shuxiang, Zhu Bian. Hozirgi xitoy tilidagi 800 ta so‘z tadqiqi-北京, 1997.
7. 马烧莹 Ma Shaoin. 现代汉语趋向动词语义研究. Hozirgi xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasi tadqiqi. Magistrlik ishi. Fudan universiteti, 2004.
8. 散文佳作 108 篇 108 шедевральных саньвэней /乔萍等编著 под редакцией Цзяо Пин. –南京:译林出版社, Нанкин: Илинъ, 2009.
9. 张发明 Zhang Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yo‘nalishi fe’llari haqida yangi tushunchalar”)// 1983.
10. 刘月华, 潘文娱, 故桦 Liu Yuehua, Pan Wenyu, Gu Hua. 《实用现代汉语语法 (Amaliy zamonaviy xitoy tili grammatikasi)》. 北京: 商务印书馆, 2013.